ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 1,3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2025
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:
Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O'zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги: 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA,
ERGASHEVA ZUHROXON ODILJON QIZI,
Paremiyalarda til va madaniyat munosabatining ifodalanishi 7

MUMINOVA NILUFAR ABDURAHMONOVNA
Temuriylar davri antroponimlarining lingvistik tadqiqi 10

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Функционирование риторического вопроса в
поэтическом тексте (на материале английского языка) 14

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo etnografik aytimlarining lingvomadaniy
birlik sifatidagi talqini 17

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Badiiy matnda tasvir va talqin (Odil Yoqubov asarlari misolida) 22

ESHBOYEV QAHRAMON
Lingvistik darajalanish metodologik asos sifatida 25

VAXIDOVA GULNOZA AMONOVNA
«Tuhfat ul-ahbob» lug‘ati so‘zligining mavzuiy tasnifi 29

TESHABOYEVA GULNOZA
Hissiy idrok orqali maza-ta’m bildiruvchi
sifatlarda mazmuniy sinkretizm 35

RAXMATULLAYEVA NIGORA ERKINPO‘LATOVNA
Me’morchilikka oid ayrim arabcha leksemalarning
semantik-funksionlal xususiyatlari 39

NAZAROVA LOBAR MAXMATAMINOVNA
Sinleksik birliklar orqali milliy mentalitetni aks ettirish masalasi 43

SIDDIQOVA KAMOLA RASULJON QIZI
Saida Zunnunova she’rlarida muhabbat konsepti semantikasi 46

МУНДАРИЖА

NAZAROVA SHOXIDA ISMATOVNA
Bilvosita nutqning turli ko'rinishlarda bayon
etilishi va ularning sintaktik xususiyatlari 49

ADABIYOTSHUNOSLIK

XAITOVA YULDUZ O'KTAMOVNA
Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodida
tarixiy-adabiy qahramonlar obrazi 52

ASHUROV DILMUROD AHMADALIYEVICH
Xalq dostonlarida duo, olqish va qarg'ishlarning qo'llanilishi 55

ASHUROVA NIGORA XAYITOVNA
Zamonaviy o'zbek nasrida ayol obrazi 59

TAJIBAEVA DILFUZA ERKINOVNA
Hozirgi o'zbek she'riyatida dunyo va o'lim timsollari tasviri 63

BADALOVA JAMILA BADALOVNA
Usmon Azimning «Adibning umri» dramasida Oybek obrazi 67

MAXAMMADIYEV AHADJON RO'ZIBOY O'G'LI
Afg'on urushi haqidagi asarlarda inson ruhiyatining yemirilishi tasviri 71

ABDULLAYEVA DILDORAXON MURODILJON QIZI
Nabi Jaloliddin ijodida ota obrazi 76

TA'LIM

BOYMAXMATOVA DILNOZA DO'SMAT QIZI
Ona tili ta'limida o'quvchilar nutqiy faoliyatining
o'rganilishi yuzasidan ayrim mulohazalar 78

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ME'MORCHILIKKA OID AYRIM ARABCHA LEKSEMALARNING SEMANTIK-FUNKSIONLAL XUSUSIYATLARI

Raxmatullayeva Nigora Erkinpo'latovna,
University Of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi til va adabiyot ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Tilning leksik qatlami eng o'zgaruvchan, xalqlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy, maishiy, siyosiy aloqalarni aks ettiruvchi sath sifatida ham ahamiyatlidir. O'zbek tilining leksik sathi ham bundan mustasno emas. O'zbek tilining lug'at tarkibida tarixan shakllangan leksik qatlamlar mavjud bo'lib, bunday leksik qatlamlar sirasiga o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, tarixiy va arxaik qatlam, yangi so'zlar qatlami, bo'yoqdor so'zlar qatlami, chegaralangan so'zlar qatlami kabilar kiradi. O'zlashma so'zlarning aksariyati arabcha, fors-tojikcha, ruscha, inglizcha so'zlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbek tili lug'at tarkibida salmoqli o'rinni arabcha so'zlar egallaydi.

«O'zbek tili leksikologiyasi»da arabcha o'zlashma so'zlarning quyidagi mavzuiy guruhlari qayd etilgan: imoiy-siyosiy tuzum, huquqqa so'zlar.

Ilm-fanga oid so'zlar.

Adabiyot va san`atga oid so'zlar.

Ishlab chiqarish, sanoat va savdoga oid so'zlar.

Harbiy ish, harbiy tushunchalar, qurol-yarog'lar nomlari.

Kitob va nashriyot ishlari bilan bog'liq so'zlar.

Maktab, ma'rifat va tarbiyaga oid so'zlar.

Kasb-hunar va u bilan aloqador tushunchalar nomlari.

Diniy tushunchalar bilan bog'liq so'zlar.

Inson va kishilar jamoasi tushunchasi bilan bog'liq so'zlar.

Qarindoshlik, oila, avlod-ajdod va yaqinlik munosabatini ifodalovchi so'zlar.

Tug'ilish va o'lim bilan bog'liq tushuncha va narsalar nomi.

Odam va hayvon a'zolari nomi.

Ba'zi kasalliklar nomi.

Turarjoy, o'rin, makon tushunchasi bilan bog'liq so'zlar.

Tabiat hodisalari va tabiiy predmetlar nomi.

Vaqt tushunchasi bilan bog'liq so'zlar.

Tomon, makon anglatuvchi geografik terminlar.

Yer, osmon tushunchasi va boshqa xil astronomik tasavvurlar nomi.

Ba'zi hayvon, parranda va qushlar nomi.

Oziq-ovqat, ichimliklar nomi.

Ba'zi konkret predmetlar nomi.

Tovush, nutq bilan bog'liq so'zlar.

Hujjat, yozishmalar nomi.

Xususiyat, belgi, xossa va holat anglatuvchi so'zlar.

Abstrakt tushuncha va tasavvurlar nomi.

Ba'zi ravishlar.

Bog'lovchilar.

Ba'zi rasm-odat so'zlari.

Modal so'zlar.[1]

Mazkur tasnifdan ham ko'rinib turibdiki, arabcha so'zlar jamiyatimiz hayotining barcha soha va tarmoqlari, jabhalariga kirib borgan, o'z so'zimizday qo'llanadi.

Ma'lumki, lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirgan. Ma'no (mazmun) umumiyligi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi ko'pchilik

[1] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1981. – Б. 119.

lisoniy adabiyotlarda maydon sifatida belgilanadi.[1] Maydon sifatida ko'rsatilayotgan materiallarning turlicha ekanligi, shuningdek, ayrim tilshunoslar tomonidan bu tushunchaning har xil talqin qilinishiga qaramay, maydonga xos yondashuvda ikkita yo'nalishni ajratish mumkin: paradigmatik va sintagmatik yondashuv. Bular eng keng tarqalgan yondashuvlar sanaladi.[2] Me'morchilik leksikasi o'zbek tili lug'at zaxirasida alohida o'rin egallaydi. Mazkur leksika o'ziga xos semantik maydonni tashkil etadi, uning tarkibidagi leksemalar paradigmatik munosabat asosida umumiy sema ostida birlashadi, shuningdek, differensial belgi-xususiyatlarga ham ega hisoblanadi. Kasb-hunarga oid leksikaga xos jihatlarni qamrab olgani bilan ham ahamiyatli sanaladi. Mazkur leksemalar guruhining bir qismi arab tilidan o'zlashgan va asrlar osha xalqimiz madaniyatidan mustahkam o'rin olgan tushunchalarni aks ettiruvchi so'zlardan iboratdir. Quyida ana shu so'zlardan bir nechtasini semantik-funksional jihatdan tahlil qilib o'tamiz.

Mazkur maqolada semantik tahlil, leksik tahlil, pragmatik tahlil, diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Arabcha o'zlashmalar orasida me'morchilik leksikasida inshootni ifodalovchi umumiy ma'noli leksemalar mavjud. Bular bino, imorat, inshoot leksemalaridir.

Bino – bu arabcha so'z **binaь (un)** shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq a unlisini a unlisiga almashtirib, so'z oxiridagi hamzani tashlab qabul qilingan: **binaь> bina (bino).** Bu so'z ko'p ma'noli **bana'** fe'lining «qurdi» ma'nosi bilan hosil qilingan masdar bo'lib, arab tilida «qurish jarayoni»,»qurilish»,»imorat» ma'nolarini, o'zbek tilida esa «imorat» ma'nosini anglatadi. Bu so'z bilan o'zbek tilida **bino bo'l (quritil, yaratil), bino qil – (qur, yarat)** qo'shma fe'llari tuzilgan.[3] Mazkur so'z me'morchilikka oid umumiste'mol leksemasi hisoblanadi. **Bino** so'zi imorat, inshoot, uy, muassasa kabi so'zlar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi hamda umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega.

Imorat so'zi arabcha ыmarat (un) shakliga ega; o'zbek tiliga kasrali hamzani I tovushiga, cho'ziq a tovushini a tovushiga almashtirib qabul qilingan. Ыmtiyaz>imtiyaz (imtoyoz) asli bu so'z ko'p ma'noli ыmara fe'lining «bino qurdi» ma'nosidan hosil qilingan I bob masdari bo'lib[4], **bino, katta uy** ma'nosini anglatadi.

Inshoot bu arabcha so'z ыnsa'at (un) shakliga ko'ra bo'lib ko'pma'noli nasaыa fe'lidan «qurdi» ma'nosi bilan hosil qilingan IV bob masdari ыnsaы (un) so'zining **at(un)** qo'shimchasi qo'shilgan ko'plik shakli bo'lib, `turli maqsadlarga xizmat qiladigan yirik qurilishlar`ma'nosini anglatadi.[5]

Mazkur leksik guruhda kasb-hunar otlari ham mavjud.

Me'mor bu arabcha so'z **miьmar(un)** shakliga ega; o'zbek tilidagi I unlisini e unlisiga,cho'ziq **a** unlisini **a** unlisiga almashtirib, sukunli ayn o'rniga ь (ayirish) belgisini qo'yib qabul qilingan; **miьmar>meьmar (me'mor).** Bu so'z ko'p ma'noli ьamara fe'lining «qurdi» ma'nosidan yasalgan shaxs oti bo'lib, **quruvchi usta, arxitektor** ma'nosini anglatadi. Bu so'zdan **me'morlik, me'morchilik** so'zlari yasalgan. Me'mor – bu qurilish loyihalariga dastlabki konsepsiyadan oxirigacha mas`ul bo'lgan shaxs. Uning vazifalariga hozirgi kunda binolar loyihasini chizishdan tortib xarajatlarni hisoblash va qurilish jamoalarini boshqarish ham kiradi. Me'mor so'zi majoziy ma'noda muayyan sohaning, jamiyatning yetakchisi, asoschisi ma'nosida ham qo'llanadi. Masalan, mustaqilligimiz me'mori (I.Karimovga nisbatan). *Bu insonning xotirasini nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar ham mustaqilligimiz **me'mori** sifatida yuksak qadrlaydi.* (uza.uz).

Naqqosh bu arabcha so'z **naqqas(un)** shakliga ega (APC,824); o'zbek tiliga cho'ziq a unlisini qisqa a unlisiga almashtirib qabul qilingan: **naqqash <naqqash (naqqosh**); o'yib rang berib bezak hosil qiladi ma'nosini anglatuvchi naqasha fe'lidan yasalgan kasb oti bo'lib, naqsh ustasi; bezak, gul yaratuvchi usta, amaliy san'atning barcha sohalaridagi ustalarga naqsh nusxalari (axta, an-

[1] Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, 1990. С. 300.
[2] Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент, 1998. – Б. 40.
[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2003. – Б.74.
[4] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2003. – Б.167.
[5] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2003. – Б.171.

dozalar) tayyorlab beradigan, gul bosuvchi ustalar uchun naqsh qoliplarini tayyorlab beruvchi ustalarga ham naqsh mujassamotini chizib beradigan kasb egasi ma'nosini ifodalaydi. Bu so'zdan o'zbek tilida **naqqoshlik** faoliyat-jarayon oti yasalgan. **Naqqosh** so'zi o'rta asrlardan beri tilning faol lug'ati tarkibida qo'llanadi. Badiiy matnlarda ko'chma ma'noda ham ishlatiladi.

Navoiyning mashhur g'azalida naqsh va naqqosh so'zlari majoziy ma'noda qo'llangan:

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,

Barchasi ezid taolo sun naqqoshindadur.

Bu o'rinda naqsh va naqqosh so'zlari ilohiy qudrat, Yaratganning ijodkorligi, cheksiz mo'jizalariga ishora qilmoqda. Oshiq bu qadar husnning barkamolligidan u qadar hayratga tushmaydi, chunki har qanday hayratga soluvchi ijod natijasi, mo'jiza Yaratganning qudrati mahsulidir.

Sharq xalqlarida diniy va dunyoviy bilimlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish juda kuchli bo'lgan. Hadislarda ilm targ'ibotiga oid jumlalar ko'p kuzatiladi. Me'morchilik leksikasida ham ana shu ilm o'rganish jarayoni bilan bog'liq inshootlar, ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi leksemalar anchagina. Ulardan biri madrasa leksemasidir.

Madrasa so'zi ham arabcha o'zlashmalar sirasiga kiradi. Mazkur so'z o'quv muassasasi, inshoot ma'nolarida qo'llanadi. Madrasalar musulmon olamida me'morlik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. Ba'zan gumbazli go'rxona qurilib, madrasaga homiylik qilgan kishining sag'anasi qo'yilgan. XIV-XVI asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolari qurish avj olgan. Ular 2-3 qavatli qurilib, odatda, katta va go'zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o'ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va masjidi bo'lgan. Keyinroq, katta madrasalar yoniga minora qurish rasm bo'lgan. Kirish peshtoqining ro'parasida, peshayvon bo'lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergan. Ba'zan madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o'ralib, hovli o'rtasida hovuz qilingan.

Madrasalarning tashqi va ichki qismi har xil rangli koshinkori va ganchkori bezaklar bilan pardozlangan. Qur'ondan oyatlar va hadislar ko'chirib yozilgan. Masalan, Buxorodagi Ulug'bek madrasasi eshiklariga «*Bilim olmoq har bir musulmon erkak va ayolning burchidir*», degan hadisi sharif bitilgan. Madrasa umumiy qurilish tipologiyasi loyihasi va qurilmasiga ko'ra ajralib turadi. Markaziy Osiyo me'morligida masjid va darsxona qoidaga ko'ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. Mamlakatimizda Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Samarqanddagi Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari, Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasasi, Muhammad Amin inoq madrasasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi, Abulqosim madrasasi, Qo'qondagi Kamol qozi madrasasi, Andijondagi Gumbaz madrasa va boshqalar me'moriy yodgorliklar sifatida mashhur hisoblanadi.[1]

Inson hayotida diniy dunyoqarash muhim o'rin egallaydi. Din ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida insoniyatning eng ibtidoiy davrlaridan buyon unga hamrohdir. O'rta asrlarda ham, zamonaviy dunyoda ham diniy marosimlar, ibodat jarayonlariga alohida ahamiyat berilgan. Buning natijasida diniy ibodat joylariga xos me'moriy obidalar qad rostlagan. Bulardan biri masjidlardir.

Masjid (arab. sajda qilinadigan joy) — musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o'qiladi. Masjidlar VII-VIII asrlardan turli musulmon mamlakatlarning mahalliy me'morlik an'analarida yetakchi o'rinni egallab, o'ziga xos uslubda qurila boshlagan. Asosan murabba yoki to'g'ri to'rtburchak tarhli, markaziy qismida xonaqohi bo'lgan, hovli atrofi ravoqli ayvonlardan iborat. 8 qirrali, gumbaz tomli va ko'p ustunli, galereyali masjidlar tosh, yog'och, g'isht, rangli koshin bilan hashamdor bezatilgan. Markaziy Osiyoda dastlabki masjidlar Buxoro arki ichida 713-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan mahalliy otashgoh butxona o'rnida qurilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Samarqanddagi birinchi masjid Hazrati Xizr masjidi o'rnida bo'lgan. X-XI asrlar

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Madrasa

masjid me'morligida ganch o'ymakorligi, g'ishtni bezakli qilib terish san'ati rivoj topgan.

Ma'lumki, bizning madaniy qarashlarimiz, urf-odat va an`analarimiz diniy qarashlar bilan uyg'unlashib ketgan. Ana shunday diniy va milliy qarashlarni umumlashtirgan so'zlardan biri mehrob so'zidir. **Mehrob** (arab. — harb joyi, janggoh; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush joyi ma'nosida) — masjidning Makka (Kaba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh. Yarim aylana, ko'p qirrali, to'g'ri to'rtburchak shaklda ishlanib, tepasi ravoq yoki yarim aylana shaklida bezaladi, atrofi hoshiyalangan bo'ladi. Ayrim mehroblar yog'och, ganch, naqshinkor marmar va koshinlar bilan qoplangan, badiiy bezakli ustunlar va ravoqli hoshiyalar bilan bezatilgan. Mehrob islom dinining dastlabki davrlaridan mavjud. Namoz vaqtida imom Mehrobga o'tib, qiblaga yuzlanadi va uning orqasidan jamoa bo'lib namoz o'qiladi. XX asr o'zbek me'morchiligida ham an'anaviy uylar qurilishida qibla tomonda mehrobga o'rin ajratilgan (Farg'ona vodiysida). Mehrobga sandiq qo'yilib, ustiga ko'rpa-to'shaklar, ko'rpachalar taxlangan.

Ma'lumki, bizning madaniy qarashlarimiz, urf-odat va an`analarimiz diniy qarashlar bilan uyg'unlashib ketgan. Mehrob o'zbek madaniyatida «muqaddas joy», «sajda qilinadigan joy» semasiga ega. Masalan:

Sajda aylar zohid ul mehrob aro,
Men qilurman sajda egma qoshima
(Mashrab)

Yoki:

Qut bir bodom-u yerim go'shayi mehrob edi,
G'orati din ayladi ul baiolig' ko'z -u qosh
(Navoiy)

«Mehrobdan chayon» asari sarlavhasidagi birikma esa ana shu muqaddaslik, tabarruklik ma'nosi asosida o'ta salbiy semaga ega «chayon» leksemasi bilan birikib, oksyumoronni yuzaga keltirgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, me'morchilik semantik maydoniga oid so'zlar safida arab tilidan o'zlashganlari anchagina. Mazkur leksemalar tarixan xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayoti, diniy qarashlarini asosida yuzaga kelgan tushunchalarni o'zida mujassam etadi. Leksemalarning aksariyati bir ma'noli, ammo ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlar ham mavjud. Me'morchilikka ois leksemalarni semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, har bir leksema mohiyatidagi milliy xususiyatlarni yoritish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Resume: This article gathers words characteristic of architectural vocabulary based on the semantic field, and conducts a lexical-semantic analysis of Arabic words in this semantic field. The research results show that architectural vocabulary incorporates linguocultural aspects.

Резюме: В данной статье слова, характерные для архитектурной лексики, собраны на основе смыслового поля, а также проведен лексико-семантический анализ арабских слов в данном смысловом поле. Результаты исследования показывают, что архитектурная лексика включает в себя лингвокультурные аспекты.